


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

O‘qov ishlari bo‘yicha

prorektor  S. Aliyev

28.01.2023 y



Axborot-resurs markazining
2023-yil yakuni bo‘yicha

HISOBOTI

Andijon-2023

Umumiy ma'lumotlar

Bugungi kunda Axborot-kutubxona muassasalarida xizmat ko'rsatish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy islohotlarning faol ishtirokchisi va komil inson tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilimlarning chuqur egallagan, ziyoli mutaxassis bo'lishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, Axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Kutubxona-axborot xizmatining mazmuni shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning ixtisosiga bog'liq bo'lib, bajaradigan lavozim vazifalariga ko'ra belgilanadi.

Axborot-kutubxona fondlarini jamlash xizmati fondlarni shakllantirishda axborot-resurs markazlariga qo'yilgan asosiy vazifalar va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish kabi maqsadlarni bajaradi. Fondlarni to'ldirishda axborot-kutubxona muassasalariga bilimlarning ma'lum bir yig'indisini o'z ichiga oluvchi kitoblarni tanlash, hamda kitob fondining ixtisoslashganligiga va foydalanuvchilarning talablariga qarab ta'lim yo'nalishlar mos keluvchi adabiyotlarning kelib tushushini ta'minlash zarur.

Axborot-resurs markazi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, kutubxona faoliyatiga oid qonun hujjatlari va o'z Nizomiga asoslanib, Institutning ichki mehnat tartib-qoidalari negizida matbaa adabiyotlari va elektron shakldagi axborot resurslaridan foydalanish tartibini belgilaydi.

Axborot-resurs markazi fondi asosan, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi rejasi asosida nashr qilingan hamda taqsimlangan darslik va o'quv qo'llanmalar, Respublika nashriyotlari, turdosh oliy ta'lim muassasalari, kitob do'konlari, institut professor-o'qituvchilari tomonidan sovg'a qilingan nashrlar va har yili Respublika va Rossiya davlati davriy nashrlariga obuna tashkil qilish asosida to'ldirilib borilmoqda.

Axborot-resurs markazi kitob fondini boyitib borish maqsadida 2023-yil davomida 597 nomda 2304 nusxa 144 071 557 so'mlik yangi o'quv adabiyotlari olinib, kitob fondiga kirim qilindi.

2023-yil uchun Respublikada chop etilgan 29 nomda 316 nusxadagi 192 356 450 so'mlik vaqtli matbuot nashrlariga obuna tashkil qilindi.

2023-yil 3-dekabr kuni Marhamat tumanida yangi tashkil qilingan zamonaviy kutubxonaga 360 nomda 827 nusxada badiiy va siyosiy adabiyotlar ajratilib, dalolatnoma asosida vaqtincha foydalanish uchun berildi.

ARM faoliyati bo'yicha yil davomida 31 ta modemnoma va xatlar ijrosi bo'yicha ma'lumotlar va berilgan jadvallar bo'yicha topshiriqlar belgilangan muddatlarda ko'rsatilgan manzillarga o'z vaqtida taqdim qilindi.

**Axborot- resurs markazining 2023-yil yakuni bo'yicha
ko'rsatkichlari**

Axborot-resurs markazining umumiy fondi **50711** nomda **169823** nusxani tashkil qiladi.

Shundan:

Darsliklar- 2889 nomda 22803 nusxa

O'quv qo'llanmalar- 3492 nomda 72365 nusxa

Ilmiy adabiyotlar- 845 nomda 8094 nusxa

Badiiy adabiyotlar- 3542 nomda 11093 nusxa

Elektron resurslar- 36819 nomda 36819 nusxa

Boshqa turdagi adabiyotlar- 3124 nomda 18649 nusxa

(Risola, entsiklopediya, lug'at va bosh.)

Jami bosma nashrlar:

13892 nomda 133004 nusxa

Shundan tillar bo'yicha:

- O'zbek tilida Kiril - 5543 nomda 71913 nusxa
- O'zbek tilida Lotin- 3746 nomda 20281 nusxa
- Rus tilida- 3564 nomda 38852 nusxa
- Xorijiy tillarda- 1038 nomda 1958 nusxa

Jami electron resurslar:

36819 nomda

Shundan tillar bo'yicha:

- O'zbek tilida Kiril - 10945 nomda
- O'zbek tilida Lotin- 2920 nomda
- Rus tilida- 14179 nomda
- Xorijiy tillarda- 8775 nomda

Gazeta va jurnallarga obuna:

Gazetalarga- 20 nomda 238 nusxa

Jurnallarga- 9 nomda 78 nusxa

2023- yil davomida:

Umumiy kitobxonlar soni – 11407

Foydalanuvchilar qatnovi – 289188

Kitob berilishi – 543302

O'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar to'g'risida ma'lumot

Yil davomida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda 21 marotaba ommaviy tadbirlar o'tkazildi. 21 marotaba mavzuli ko'rgazmalar, 8 marotaba yangi adabiyotlar ko'rgazmalari tashkil qilindi. ARM shoxobchalarida 17 marotaba ommaviy tadbirlar, 17 marotaba mavzuli ko'rgazmalar, 6 marotaba doimiy ko'rgazmalar tashkil qilindi.

- 2023-yil - "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Axborot-resurs markazi o'quv zallari va shoxobchalarida ko'rgazmalar tashkil qilindi.

- 2023-yil 14 - yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Xalq va armiya – bir tanu jondir" mavzusida ARM universal o'quv zalida davra suhbat o'tkazildi va "Vatan himoyasi – muqaddas burch" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 30 - yanvar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 85 yilligiga bag'ishlab "Vatanga baxshida umr" mavzusida portret kecha o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan Axborot-resurs markazi universal o'quv zalida "Xotirangiz yuraklarda barhayot" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 9 - fevral Hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi munosabati bilan "Alisher Navoiy – buyuk mutaffakkir va g'azalnavis shoir" mavzusida adabiy musiqali kecha o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan Axborot-resurs markazining universal o'quv zalida, talabalar turar joyida va ARM shoxobchalarida "Fasohat mulkingning sultoni" deb nomlangan ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 14 - fevral O'zbek adabiyotining buyuk namoyondasi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligi munosabati bilan Avtomobilsozlik fakulteti o'quv zalida "Bobur - ma'rifatparvar davlat arbobi va serqirra shoir" mavzusida adabiy musiqali kecha o'tkazildi va ko'rgazma tashkil qilindi. Ko'rgazmaga buyuk shoirning hayoti va ijodini aks ettiruvchi asarlari qo'yildi. Shuningdek, ushbu sanaga bag'ishlangan ko'rgazmalar ARM shoxobchalarida ham tashkil etildi.

- 2023-yil 1 - mart Zulfiya tavalludining 108 yilligi munosabati bilan Axborot – resurs markazi universal o'quv zalida "Zulfiya- o'zbek she'riyatida bahor kuychisi" mavzusida adabiy musiqali kecha o'tkazildi. Shuningdek, ushbu sana munosabati bilan universal o'quv zalida, talabalar turar joyida va ARM shoxobchalarida "Zulfiya - muhabbat va hayot kuychisi" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 8 - mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Axborot-resurs markazi universal o'quv zalida "Ayol - jamiyatimiz ko'rki" mavzusida adabiy musiqiy kecha o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan ARM universal o'quv zalida va shoxobchalarida "Guldanda go'zal o'zbekim ayollari" mavzusida ko'rgazmalar tashkil etildi.

- 2023-yil 21- mart Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan Axborot-resurs markazi universal o'quv zalida "Xush kelibsan, o'lkamizga Navro'z" mavzusida adabiy musiqiy kecha o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan ARM universal o'quv zalida va shoxobchalarida "Har kuning bo'lsin Navro'z" mavzusida ko'rgazmalar tashkil etildi.

- 2023-yil 24-mart kuni institutning asosiy binosi Yoshlar bog'ida Zukko kitobxon ko'rik tanlovining institut bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda barcha fakultetlardan jamoalar ishtirok etib, bilimlari sinovdan o'tkazildi. Tanlov yakunida mazkur asarlarning eng bilimdonlari deb Avtomobilsozlik jamoasi topildi. Tanlovni AndMI (Rasmiy kanali) da yoritildi.

- 2023-yil 9 - aprel Sohibqiron Amir Temur tavalludining 687 yilligi munosabati bilan "Avtomobilsozlik" fakulteti bilan hamkorlikda "Sohibqiron Amir Temur – avlodlar etti iftihori" mavzusida davra suhbat bo'lib o'tdi. Shuningdek, "Avtomobilsozlik" fakulteti o'quv zalida "Etti iqlim sultoni" mavzusida ko'rgazmalar tashkil qilindi.

- 2023-yil 14 - aprel kuni Axborot-resurs markazi binosi foyesida talabalarning so'rovlari asosida "Yangi adabiyotlar" ko'rgazmasi tashkil qilindi. Kitob ko'rgazmaga jahon va o'zbek adabiyotining bestseller asarlari qo'yildi va AndMI (Rasmiy kanali) da yoritildi.

- 2023-yil 26 - aprel Avtomobilsozlik fakulteti o'quv zalida O'zbekiston xalq shoiri, nodir iste'dod sohibi, Vatan kuychisi Muhammad Yusuf tavalludining 69 yilligi munosabati bilan "Muhammad Yusuf - xalq mehrini qozongan shoir" mavzusida adabiy kecha o'tkazildi. Shoir tavalludiga bag'ishlab "Muhammad Yusuf - el sevgan shoir" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 9 - may Axborot-resurs markazining universal o'quv zalida Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan "Xotira bor ekan – millat barhayot" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Shu munosabat bilan "Xotira- muqaddas, qadr - aziz" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 16 - may kuni institutda tahsil olayotgan barcha talabalarni ona tilimizga, badiiy, mumtoz adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan ijodiy ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida axborot-resurs markazida "Notiqlik san'ati" tanlovining institut bosqichi o'tkazildi. Tadbir AndMI (Rasmiy kanali) da yoritildi.

- 2023-yil 21 - may Axborot-resurs markazida Kutubxonachilar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbir oldidan "Yangi adabiyotlar" ko'rgazmasi tashkil qilindi. Ushbu sana munosabati bilan Axborot-resurs markazi xodimlar tomonidan "Kitob – bilim manbai" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Shuningdek, Axborot-resurs markazining universal o'quv zalida "Kasbmiz – faxrimiz" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi. Tadbir AndMI (Rasmiy kanali) da yoritildi.

- 2023-yil 26-iyun Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni munosabati bilan Axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan "Giyohvandlik- asr vabosi" mavzusida talabalar o'rtasida davra suhbat o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan "Ogohlik-davr talabi" mavzusida universal o'quv zalida ko'rgazma tashkil etildi.

- 2023-yil 30-iyun Halqaro yoshlar kuni munosabati bilan Universal o'quv zalida "Yoshlar millat kelajagi, yurt tayanchi" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan o'quv zalida "Yoshlar bizning kelajagimiz" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan "Mustaqillik – eng ulug' va eng aziz ne'mat" mavzusida anjuman

o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan "Mustaqillik – buyuk va bebaho ne'mat" mavzusida universal o'quv zalida ko'rgazma tashkil etildi.

- 2023-yil 1-oktyabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan "Sizga sharaf, sizga ta'zim ustozlar" mavzusida adabiy musiqali kecha o'tkazildi va "Kuch – bilim tafakkurda" mavzusida ko'rgazma tashkil etildi.

- 2023-yil 21-oktyabr O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan ARM universal o'quv zalida "Ona tili - millatimiz g'ururi" mavzusida ko'rgazma tashkil qilindi.

- 2023-yil 26-oktyabr O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, adabiyotshunos olim Pirimqul Qodirov tavalludining 95 yilligi munosabati bilan "Pirimqul Qodirov - O'zbek xalqining sevimli adibi" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

- 2023-yil 17-noyabr Butunjahon talabalar kuni munosabati bilan "Yoshlar millat kelajagi, yurt tayanchi" mavzusida davra suhbatini va Axborot-resurs universal o'quv zalida "Kelajak barkamol yoshlar qo'lida" mavzusida ko'rgazma tashkil etildi.

- 2023-yil 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligi munosabati bilan "Konstitutsiya- erkin va farovon hayotimiz poydevori" mavzusida bahs munozara o'tkazildi. Ushbu sana munosabati bilan "Konstitutsiya – huquq va erkinliklar kafolati" mavzusida universal o'quv zalida ko'rgazma tashkil etildi.

Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish ishlari

Axborot-resurs markazi bosh binodan tashqari Avtomobilsozlik fakulteti, Transport va logistika fakulteti, talabalar uyida, shuningdek, Jalaquduq tumanida joylashgan filiallarga ega.

2023-yilning iyun oyida Magistratura bo'limida 15 o'rinli o'quv zali tashkil qilindi.

Hozirgi kunda Axborot-resurs markazida 215 o'rin mavjud, shundan 30 o'rinli xorijiy adabiyotlar, 10 o'rinli ilmiy adabiyotlar, 30 o'rinli universal adabiyotlar, 40 o'rinli elektron resurslar zali, Avtomobilsozlik fakulteti binosida 20 o'rinli universal adabiyotlar, Magistratura bo'limida 15 o'rinli o'quv zallari, Transport va logistika fakultetida 30 o'rinli universal adabiyotlar zallari hamda 1-2-sonli Talabalar turar joylarida 40 o'rinli o'quv zallari, shuningdek asosiy binoda va Avtomobilsozlik fakulteti binosida 1 tadan o'quv abonementlari faoliyat yuritmoqda. Institut xududida 22 o'rinli "Book kafe" tashkil qilingan. Jalaquduq tumanida ARM ning 5 ta shoxobchasi mavjud.

ARM ga yagona kitobxonlik guvohnomasi bo'yicha 3683 nafar kitobxon ro'yxatga olingan. Bulardan 3115 nafari talaba, 84 nafari magistr, 64 nafari doktorant, 265 nafari professor-o'qituvchi, 111 nafari ishchi-xodim va 44 nafar mahalliy kitobxonlar. Shuningdek, Axborot - resurs markazining Jalaquduq tumanidagi ARM shoxobchalarida 7725 nafar kitobxonlar ro'yxatdan o'tgan. Umumiy kitobxonlar soni 11407 nafar.

Axborot-resurs markazi abonement va o'quv zallari hamda shoxobchalari tomonidan foydalanuvchilarga o'quv yili davomida 543302 nusxa o'quv adabiyotlari berildi hamda 8436 marta ma'lumot axborot xizmati ko'rsatildi. (Kitobxon qatnovi 289188 marta).

Talabalar turar joylariga talabalarning ma'naviy-madaniy dam olishlari, intellektual salohiyatini oshirish uchun 5 nomda jurnal va 6 nomda gazetalar ajratildi.

Axborot-resurs markazining 1-sonli talabalar turar joyidagi o'quv zalining umumiy fondi 524 nomda 1267 nusxa, 2-sonli talabalar turar joyi o'quv zalining umumiy fondi 1088 nomda 1964 nusxadan iborat. Talabalar turar joylari o'quv zallaridagi adabiyotlar o'quv yili davomida foydalanuvchilar ehtiyojiga ko'ra almashtirib turiladi.

Axborot-resurs markazida mavjud ARMAT dasturiga ARM fondidagi 21499 nomda o'quv adabiyotlarining bibliografik yozuvlari kiritilgan hamda 11054 nomdagi to'liq matnli elektron o'quv adabiyotlar joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-iyundagi Hay'atning kengaytirilgan 71-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Axborot-resurs markazida institut Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi bilan hamkorlikda "Libsense" zamonaviy avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi ishlab chiqildi. "Libsense" elektron kutubxona tizimiga ARM fondidagi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va to'liq matnlari joylashtirilmoqda. Shu kunga qadar ushbu tizimga 13629 nomda adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va 11085 nomdagi o'quv adabiyotlarning to'liq matni joylashtirilgan.

Foydalanuvchilarga masofaviy xizmat ko'rsatish maqsadida telegram ijtimoiy tarmog'idagi axborot-resurs markazining @andmiarm_bot sahifasiga 8502 nomda 206,5 Gb hajmdagi adabiyotlar joylashtirilgan, ushbu adabiyotlarning 2575 nomdasi 17 ta kafedra fan dasturlarida ko'rsatilgan asosiy adabiyotlardir. Bundan tashqari kitobxonlarning ehtiyojlariga asosan, bot sahifasiga ensiklopediyalar, Prezident asarlari, xorijiy adabiyotlar, badiiy adabiyotlar hamda audio adabiyotlar joylashtirilgan. Undan foydalangan kitobxonlar soni 7900 nafarni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13 iyuldagi 225-sonli buyrug'iga asosan ishga tushirilgan "Elektron kutubxona" platformasiga institut Axborot-resurs markazi fondidagi mavjud 15446 nomdagi darslik va o'quv qo'llanmalar hamda ilmiy adabiyotlar joylashtirildi.

Foydalanuvchilarga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tavsiya qilgan 100 nomdagi adabiyotlardan QR-kod orqali foydalanishlari institut fakultetlari o'quv zallari va talabalar turar joylari kirish qismiga ko'rgazmali stendlar qo'yilgan.

Hozirgi kunda Oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari o'rtasida o'zaro OTM lar rasmiy veb sayti tarkibidagi elektron kutubxonasi orqali kitob almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Axborot bibliografik ma'lumotnoma ishlari

Bo'lim tomonidan ish rejada belgilangan 2023 yil - Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili deb e'lon qilinishi munosabati bilan "O'zbekiston - inson qadri va yoshlar manfaati ulug'langan yurt" mavzuda bibliografik obzorlar ishlab chiqildi. Shuningdek, bo'limda va shoxobchalarda mavjud bo'lgan bajarilgan so'rovlar kartotekasi 226 nusxada, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va qonunlari" 1029 nomda, "Prezident asarlari" 80 nusxada, "O'lkashunoslik" 307 nomda, "Davriy nashrlar", 29 nomda, "Oynoma va ro'znomalar" da chiqqan maqolalar 586 nomda, "Ogohlik - davr

talabi” 121 nomda, “ARM faoliyatiga oid qonun va qarorlar” nomda, “Ma’naviyat-millat tayanchi” 310 nomda jami 2742 nomda kartotekalar muntazam yuritilmoqda. Shoxobchalarda “O‘qing, yangi adabiyotlar”, “Tanishib, yangi adabiyotlar” mavzularda axborot kunlari va “Fermer xo‘jalik xodimlari sizlar uchun”, “Pillakorlar uchun”, “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” mavzularda mutaxassis kunlari o‘tkazildi. Bo‘lim tomonidan 2023-yil uchun obuna qilingan davriy nashrlar ma’naviyat va ma’rifat markazi (1-talabalar turar joyi ma’naviyat xonasi, 2-talabalar turar joyi ma’naviyat xonasi, 3-talabalar turar joyi ma’naviyat xonasi) ARM o‘quv zallari (Universal o‘quv zali, Avtomobilsozlik o‘quv zali, Logistika o‘quv zali), Talabalar turar joylari (2-talabalar turar joyi o‘quv zali, 3-talabalar turar joyi o‘quv zali) ARM shoxobchalariga (Jalaquduq tumanidagi 1-shoxobcha, 2-shoxobcha, 3-shoxobcha, 4-shoxobcha, 5-shoxobchalar) taqsimlangan va ularning taxlamlari (podshivkalari) nazorat qilinib kelinmoqda.

Yil davomida 8436 marotaba axborot-bibliografik so‘rovlar hisobga olindi.

“Ochiq eshiklar kuni” munosabati bilan 2023 yil 25-aprel kuni O‘sh texnologiya universitetidan tashrif buyurgan 2 nafar professor-o‘qituvchilar institutimizning 34 nafar talabalari bilan uchrashuv o‘tkazdilar. 10-may kuni Andijon shahridagi 30-umumta‘lim maktabining 35 nafar, 17- may kuni esa, Qo‘rg‘ontepa tumani 4-umumta‘lim maktabining bitiruvchi o‘quvchilaridan 34 nafar, 4-noyabr kuni Andijon shahar 6-umumta‘lim maktabi o‘quvchilaridan 16 nafar, 17-noyabr kuni Shahrixondagi T. Sarimsaqov nomli umumta‘lim maktaban 65 nafar, 11-dekabr Andijon shahar Mashinasozlik litseyidan bitiruvchi 150 nafar o‘quvchilar Axborot-resurs markaziga tashrif buyurdilar. Ularga ARM o‘quv zallari va o‘quv adabiyotlari abonementi kitob fondlari, ulardan foydalanish hamda elektron kutubxona va @andmiarm bot kanalidan foydalanish tartiblari haqida targ‘ibot ishlari olib borildi.

Kitob fondini hisobga olish va shakllantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash

ARM kitob fondidagi mavjud o‘zbek, rus va xorijiy tillardagi adabiyotlar sohalar bo‘yicha joylashtirilgan. O‘quv zallari foydalanuvchilarga kerakli kitoblarni mustaqil tanlashlari uchun juda qulay bo‘lib, yangi olingan adabiyotlar bilan yaqindan tanishib borishga imkon yaratadi.

Axborot-resurs markazi kitob fondini boyitib borish maqsadida 2023-yil davomida 597 nomda 2304 nusxa 144 071 577 so‘mlik yangi o‘quv adabiyotlari olinib, kitob fondiga kirim qilindi.

Shundan 114 nomda 650 nusxa darsliklar, 144 nomda 604 nusxa o‘quv qo‘llanmalar, 93 nomda 181 nusxa ilmiy adabiyotlar, 143 nomda 185 nusxa badiiy adabiyotlar, 101 nomda 684 nusxa boshqa turdagi adabiyotlardir.

2023-yil uchun Respublikada chop etilgan 29 nomda 316 nusxadagi vaqtli matbuot nashrlariga obuna tashkil qilindi. Shundan: 20 nomda 238 nusxa gazeta va 9 nomda 78 nusxa jurnallardir. Shuningdek, xorijiy davlatlarda chop etilgan 1 nomdagi jurnalga obuna qilingan.

Hozirgi kunda markaz 57 ta kompyuter, 4 ta printer, 1 ta rangli printer, 1 ta nusxa ko‘chirish apparati, 2 ta gorizontal infokiosk, 2 ta SMART TV, 1 ta kitob skaneri bilan

ta'minlangan. Kompyuterlar ichki lokal tarmoq va Internet tarmog'iga ulangan. Internet TAS-IX saytlar uchun tezligi 100 Mb/s va boshqa saytlarga internet tezligi 100 Mb/s ni tashkil etadi. Markazda Wi-Fi xududi tashkil qilingan. Kompyuterlarning 40 tasi elektron resurslar o'quv zaliga joylashtirilgan.

Yil davomida har oyning 22-sanasida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 3-maydagi 87-03-1772-sonli modermomasiga asosan, "Andijon mashinasozlik instituti faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"da belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha hamda Andijon mashinasozlik institutining 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha har oyda ARM ga yangi olingan adabiyotlar va ARM da o'tkazilgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar Monitoring va ichki nazorat bo'limiga belgilangan muddatlarda taqdim qilindi.

Institutda bakalavriyatning 30 ta ta'lim yo'nalishlarida 410 ta hamda magistraturaning 24 ta mutaxassisliklarida 105 ta fan mavjud, ularning fan dasturlari va sillabuslarida 2575 ta asosiy adabiyotlar mavjud bo'lib, bakalavriyatda 92.5%, magistraturada esa 83.85% institut bo'yicha adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi 90.2% tashkil etadi.

2023-yil 23-mart kuni 1-son dalolatnoma asosida kitob fondidan 307 nomda 5491 nusxada 14403362,70 so'mlik ma'nan eskirganligi hamda foydalanish davriyligi o'tganligi uchun o'quv adabiyotlar foydalanishdan chiqarildi.

Darsliklar- 25 nomda 618 nusxa

O'quv qo'llanmalar- 150 nomda 2977 nusxa

Ilmiy adabiyotlar- 56 nomda 623 nusxa

Boshqa turdagi adabiyotlar- 71 nomda 1273 nusxa

2023-yil 17-aprel kuni 2-son dalolatnoma bilan kitobxonlar tomonidan yo'qotilgan 20 nomda 20 nusxa 116816,10 so'mlik adabiyotlar kitob fondidan chiqarildi, o'rniga olingan 20 nomda 20 nusxa 116816,10 so'mlik adabiyotlar kirim qilindi.

2023 yil 17 aprel kuni 3-son dalolatnoma bilan kitob fondidan kitobxonlar tomonidan yo'qotilgan 109 nomda 109 nusxa 610999 so'mlik adabiyotlar uchun 1833000 so'm miqdorida jarima undirildi.

Darsliklar- 10 nomda 10 nusxa

O'quv qo'llanmalar- 48 nomda 76 nusxa

Ilmiy adabiyotlar- 3 nomda 8 nusxa

Badiiy adabiyotlar- 8 nomda 8 nusxa

Boshqa turdagi adabiyotlar- 6 nomda 7 nusxa

2023-yil 17-aprel kuni 4-son dalolatnoma bilan kitob fondidan 86 nomda 94 nusxada 707497,75 so'mlik yirtilgan, titilgan va foydalanishga yaroqsiz o'quv adabiyotlar foydalanishdan chiqarildi.

Darsliklar- 12 nomda 12 nusxa

O'quv qo'llanmalar- 57 nomda 68 nusxa

Badiiy adabiyotlar- 9 nomda 12 nusxa

Boshqa turdagi adabiyotlar- 2 nomda 2 nusxa

2023-yil 17-aprel kuni 5-son dalolatnoma bilan chiqib ketgan professor-o'qituvchilar yashash joylariga 9-sonli reyestr orqali xat jo'natildi. Ijobiy natija

bo'lmagach, Axborot- resurs markazi balansida turgan 297 nusxa 1070995,33 so'mlik nashrlarni chiqarilildi.

Darsliklar- 27 nomda 31 nusxa

O'quv qo'llanmalar- 40 nomda 194 nusxa

Ilmiy adabiyotlar- 5 nomda 19 nusxa

Badiiy adabiyotlar- 3 nomda 3 nusxa

Boshqa turdagi adabiyotlar- 35 nomda 50 nusxa

Xodimlar bilan ishlash

Yil davomida ARM faoliyatiga oid Zoom orqali 6 marotaba onlayn seminarlar bo'lib o'tdi. Ushbu seminarlarda 9 nafar ARM xodimlari ishtirok etdilar.

So'nggi 5 yil ichida 3 nafar ARM xodimlari O'zbekiston Milliy kutubxonasida malaka oshirish kurslarida va 1 nafar xodim Turkiya Respublikasida bo'lib o'tgan "Trade Unions in the Market Economy" mavzusidagi halqaro seminarida ishtirok etdilar. Shuningdek, 2 nafar xodim EBSCO informatsion servis agentligi tomonidan tashkil qilingan o'quv seminarida ishtirok etdilar va sertifikatga ega bo'ldilar.

Oliy ta'lim muassasalariga joriy qilingan yagona "Elektron kutubxona" axborot tizimiga adabiyotlarni joylashtirishda samarali mehnat qilgan, faollik ko'rsatganligi uchun ARM xodimlarining 8 nafari 2023-yil may oyida bir oylik maoshi miqdorida rag'batlantirildi.

ARM da faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar uchun shart-sharoitlar yaratilgan, yil davomida 23 nafar xodimlarga oylik maoshlariga qo'shimcha ravishda ustama to'lab berildi.

2023-yil 2-fevral kuni ko'p yillik samarali va halol mehnati hamda o'z xizmat vazifasiga bo'lgan sadoqati uchun 2- toifali bibliograf R. Qosimova Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.

2023-yilning sentyabr oyida Bobur nomli viloyat Axborot-kutubxona markazining "Bobur kutubxonasi" ma'naviy-ma'rifiy jurnalida ARM bo'lim mudiri D. Kurbanovning "Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning o'rni" nomli maqolasi va ARM kutubxonachisi M. Maxmudovning "Книга и наш мозг" nomli maqolasi chop etildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomli viloyat axborot-kutubxona muassasasi bilan hamkorlikda 2024-yil davomida 4 nafar ARM xodimlarini Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasida malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlari rejalashtirildi.

Hozirgi kunda Axborot-resurs markazida jami 26 ta xodim faoliyat ko'rsatmoqda.


Ulardan oliy ma'lumotlilari 14 ta:

- kutubxonachilik sohasi bo'yicha – 4 ta.

O'rta maxsus ma'lumotlilari – 12 ta:

-kutubxonachilik sohasi bo'yicha –9 ta.

ARM direktori



R. Mamatov